

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALOHİYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Kaxarov Jasur Abulqosimovich</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Rahmonov Shuxrat Shavkatovich</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Shonazarov Jamshid Shuxratovich</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Ho'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

- Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306
- Узакова Гўзал Шариповна*
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325
- Пулатова Нодирахон Собиржоновна*
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332
- Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich*
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341
- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345
- Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li*
TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356
- Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li*
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368
- Утапов Фурқат*
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
МАҚОМИ 369-374
- Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li*
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH
TENDENSIYASI 375-381
- Назарова Марҳабо*
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ 382-386
- Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич*
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ
МАСАЛАЛАРИ 387-400
- Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406
- Abdikhakimov Islombek*
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK
YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOYIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

THE IMPROVEMENT OF SOURCE OF CREDIT IN COMMERCIAL BANKS

Adilov Mirkomil Miralimovich,

Independent researcher, Deputy Director of Graduate School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Abstract. Credits of commercial banks are important in ensuring the stable development of our country's economy. Sources of credit investments and the level of dollarization, with the beginning of the processes of economic liberalization in Uzbekistan, a sharp increase in credit investments was observed. The sources of the credit portfolio of commercial banks and the profitability of credit investments are inextricably linked to the structural structure of their obligations and the optimization of credit sources. The article analyzes the main sources of commercial banks' credit investments and the factors affecting them.

Key words: commercial banks, credit, credit portfolio, deposit, credit line, debt, improvement, Uzbekistan.

TIJORAT BANKLARI KREDIT QO'YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Adilov Mirkomil Miralimovich,

Mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi direktor o'rinbosari,

Annotatsiya. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit qo'yilmalari manbalari va dollarlashuv darajasi, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarining boshlanishi bilan kredit qo'yilmalarining keskin o'sishi kuzatildi. Tijorat banklari kredit portfelining shakllanishi hamda kredit qo'yilmalarining daromadliliigi ular majburiyatlarining tarkibiy tuzulushiga, kredit manbalarini optimallashtirishga uzviy bog'liq hisoblanadi. Maqolada tijorat banklari kredit qo'yilmalarining asosiy manbalari va ukarga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit, kredit portfeli, depozit, kredit liniya, qarz, takomillashtirish, O'zbekiston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N13>

Kirish. Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda bank kreditlarining roli oshib bormoqda. 2023-yilda dunyoda moliyaviy barqarorlik xatarlari oshdi. AQSh va Yevropa moliyaviy tizimlarida yuzaga kelgan noaniqlik bir qator banklarning moliyaviy yo'qotishlarga uchrashiga olib keldi. AQShda bir nechta banklarning (Silicon Valley Bank, Signature Bank va First Republic Bank) bankrot deb e'lon qilinishi hamda Shveysariyaning Credit Suisse bankining UBS tomonidan qo'shib olinishi ortidan boshqa banklarning defoltga uchrash xavfi kuchayib bormoqda [1; p.4-5]¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Moliyaviy barqarorlik sharhi, 2022-yil, 4-bet sahifa ma'lumotlari.

Tijorat banklarining kredit operatsiyalari bank faoliyatining eng muhim va jadal rivojlanayotgan turi hisoblanib, tijorat banklarida asosiy daromad manbai hisoblanadi. Tijorat banklarining kreditlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy va investitsion xarajatlarini moliyalashtirish manbalaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Tijorat banklarining turli davlatlarda kreditlash jarayonida yuzaga kelayotgan risklarni kamaytirish, kredit qo'yilmalarining daromadlilikini oshirish, bank likvidlilikini ta'minlash, kredit portfelining sifatini yaxshilash ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib kelmoqda [3; p.13-14].

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun tijorat banklari moliyaviy barqaror bo'lishi lozim. Shundagina ular xo'jalik sub'ektlari va aholiga etarli darajada kredit beradi, iqtisodiyot sub'ektlari o'rtasida to'lovlar uzluksiz o'tadi va barchaga zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ularning kredit portfelining holati va tuzulishi bilan uzviy bog'liq. Tijorat banklarning moliyaviy holati ularning kredit portfeli holatiga uzviy bog'liqdir. Chunki bankni kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar ulushi me'yorida, ya'ni 5 foizdan oshsa, bankda moliyaviy muammolar vujudga keladi.

Shu bilan birga, banklarda barqaror resurs bazasini kengaytirish, depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, shuningdek, aholidan jamg'arma va muddatli depozitlarni qabul qilish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining kredit portfeli hajmining oshishiga erishiladi.

Adabiyotlar sharhi. Tijorat banklarida kredit portfelini shakllantirish, uning manbalarini optimallashtirish bank kredit faoliyatining umumiy maqsadi shakllantirilganda, hamda kredit siyosati strategiyasi ishlab chiqilgandan so'ng boshlanadi. Kredit siyosati strategiyasini ishlab chiqqan bank - kredit faoliyatining asosiy maqsadlarini belgilab, kredit portfelini shakllantirishga hamda kredit qo'yilmalarining manbalarini takomillashtirishga kirishadi [4; p. 42-43]. Hozirgi vaqtda kredit portfelining holati va tuzulishi nafaqat bankning kredit siyosati sifatini, balki kelgusida mazkur bankning kredit faoliyati natijalarini prognoz qilish imkonini ham beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida shuni aytish kerakki, tijorat banklari kredit portfelining shakllanishi, portfelning holati hamda kredit qo'yilmalarining daromadlilikini ular majburiyatlarining tarkibiy tuzulishiga, kredit manbalarining optimallashtirishiga ham uzviy bog'liq hisoblanadi [5; p. 23-24].

Tijorat banklarida kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining shakllanishi pul mablag'larining narxi, depozitlar bo'yicha shakllangan foizlar, banklar tomonidan mijozga nisbatan o'rnatiladigan risk uchun mukofot, banklarning kutilmalari va boshqa operatsion xarajatlaridan iborat bo'lishini lozim [6; p. 56-58]. Shuningdek, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining shakllanishida inflyasiya darajasi, pul bozoridagi resurslarning narxi, iqtisodiyot subyektlarining inflyasion kutilmalari va ular asosida shakllangan depozit foiz stavkalari asosiy omillardan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tashqi va ichki xatarlarga nisbatan bardoshlilikini ko'rsatib, banklarning iqtisodiyotni kreditlar bilan ta'minlash hamda potensial shoklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun yetarli darajada kapital bilan ta'minlanganini ta'kidlash lozim [1; p. 42-43]. Shu bilan bir vaqtda, bank tizimidagi muammolardan biri ajratilgan kreditlarning moliyaviy


manbasi hisoblanadi. Banklar o'z faoliyatlarida ko'proq chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobidan ishlaganliklari sababli jamlangan mablag'larni samarali joylashtirishni asosiy maqsad sifatida qo'yadilar [1; p. 31-32]. Albatta mablag'larni shu yo'sinda jalb qilish va ularni ishlatish borasida katta risklar mavjud. Kredit riskini tahlil qilish, hamda boshqarishning xorij tajribasi va undan mamlakatimiz bank tizimida foydalanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishida tijorat banklari kredit qo'yilmalarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilib, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlarning samaradorligini oshirish va ularning kredit portfelini sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit manbalarini takomillashtirishga oid mavjud adabiyotlarni va shunga o'xshash kontekstlarni har tomonlama ko'rib chiqishni, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ko'rsatkichlari bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi asosan ikkilamchi ma'lumotlar bazasi asosida olib borilgan. Tahlil ma'lumotlarining asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari va Davlat Statistika Agentligi ma'lumotlari tashkil etadi. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan tijorat banklari kreditlarini takomillashtirishga doir olib borilgan izlanishlari natijalaridan ham keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi o'tgan yilga nisbatan 2023-yilda 21,6 foizga oshib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 452,1 trln. so'mga yetganligi, kreditlarning YaIMga nisbatan darajasi 45,9 foizni tashkil etganligini ta'kidlash lozim.




1-rasm. Tijorat banklari kreditlarining o'sish dinamikasi¹, (%da)

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash joizki, xorijiy valyutadagi kreditlarni qayta baholashsiz kreditlarning real o'sishi 24,9 foizni tashkil etdi. Jami kredit portfelidagi

¹ Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi 2017-yildagi 62,3 foizdan 2022-yilga kelib 48,1 foizgacha kamaydi. Xususi va davlat ulushiga ega korxonalar tomonidan xorijiy valyutadagi kreditlarga talabning nisbatan yuqoriligi, iqtisodiyotni kreditlashda tashqi moliyalashtirish manbalari ulushining ustunligi va xedjirlash vositalarining yo'qligi kreditlar dollarlashuvining yuqori darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Kreditlarning yuqori o'sish sur'atiga qaramasdan moliyaviy qamrov ko'lami bo'yicha mamlakatimiz MDH davlatlari orasida o'rtachadan past ko'rsatkichni qayd etgan (2-rasm).



2-rasm. MDH davlatlari kesimida moliyaviy qamrov darajasi¹

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, odatda kredit qo'yilmalari asosiy manbasi bo'lishi kutiladigan depozitlarning YAIMga nisbati esa so'nggi 7 yilda o'rtacha 20 foizni tashkil etgan (23 foizdan 19,7 foizgacha pasaygan) holda MDH davlatlari orasida eng past ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bu esa o'z o'rnida tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimal holatda emasligidan dalolatdir. Chunki, depozitlarning kamayishi tijorat banklarida kredit qo'yilmalarini shakllantirishda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida shuni aytish kerakki, tijorat banklari kredit portfelining shakllanishi hamda kredit qo'yilmalarining daromadlilikligi ular majburiyatlarining tarkibiy tuzulushiga, kredit manbalarining optimallashtirishiga ham uzviy bog'liq hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida tijorat banklari majburiyatlarining tarkibiy tuzulishi va tahlilini keltiramiz.

1-jadval

**Tijorat banklari majburiyatlarining tarkibiy tuzulishi²
(mlrd. so'm, ulushi foizda)³**

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Statistik-byulleteni" - 2018, 2019, 2020, 2021, 2022-yillar ma'lumotlari.

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Statistik bulletin, "Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari", 5.1.11-jadval ma'lumotlari asosida tayorlandi, 2022-yil.


Ko'rsatkichlar / Yillar	Depozitlar		Olingan kreditlar va lizinglar		Boshqa banklarning mablag'lari - rezidentlar		Boshqa banklarning mablag'lari - nerezidentlar	
	Summa	%	Summa	%	Summa	%	Summa	%
2018	70 001,4	37,3	104 378,8	55,6	6 390,7	3,4	511,6	0,3
2019	91 009,0	41,1	105 252,2	47,5	9 869,4	4,5	922,3	0,4
2020	114 746,9	37,3	151 704,0	49,3	13 001,4	4,2	3 175,4	1
2021	156 189,8	41,8	173 750,3	46,5	13 288,6	3,6	4 670,8	1,2
2022	216 737,5	45,4	186 614,5	39,1	18 780,8	3,9	22 798,5	4,8

Banklar tomonidan berilgan milliy valyutadagi qisqa mudattli kreditlar 2021-yilning boshida 10 foizga ko'tarilganligi va shu vaqt davomida uzoq mudattli kreditlar sezilarli darajada, 3 foiz atrofida pasayganligini ta'kidlash lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining shakllanishi pul mablag'larining narxi depozitlar bo'yicha shakllangan foizlar, banklar tomonidan mijozga nisbatan o'rnatiladigan risk uchun mukofot, banklarning kutilmalari va boshqa operasion xarajatlardan iborat bo'lishini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Shuningdek, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining shakllanishida inflyasiya darajasi, pul bozoridagi resurslarning narxi, iqtisodiyot subyektlarining inflyasion kutilmalari va ular asosida shakllangan depozit foiz stavkalari asosiy omillardan hisoblanadi. 2022-yilning oxiriga kelib milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining muvozanatlashuvi kuzatilib, yil boshidan kuzatilayotgan 20-22 foizlik koridor doirasida bo'ldi.

Kredit qo'yilmalari manbalari va dollarlashuv darajasi, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarining boshlanishi bilan kredit qo'yilmalarining keskin o'sishi kuzatildi. Xususan, kreditlar qoldig'ining yillik o'sishi 2017-2022-yillarda o'rtacha 43 foizni tashkil etgan bo'lib, bunda milliy valyuta almashuv kursi hisobiga xorijiy valyutadagi kreditlarning qayta baholanishi va 2019-yilda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilgan qariyb 4,4 mlrd dollar ekvivalentidagi kreditlarning jamg'arma balansiga qaytarilishi ta'siri ham mavjud (ushbu omillar ta'sirini chiqarib tashlab hisoblaganda kredit qo'yilmalarining yillik o'sishi 34 foiz atrofida bo'lgan).

Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari kredit qo'yilmalari o'sishining asosiy manbalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.



3-rasm. Tijorat banklari kredit qo'yimlarining asosiy manbalari, (trln. so'm)¹

Keltirilgan ma'lumitlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, ushbu davrda iqtisodiyotga kredit qo'yimlarining asosiy moliyalashtirish manbasi hukumat mablag'lari, O'zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasi (O'TTJ) resurslari va banklar tomonidan keng hajmda jalb etilgan tashqi qarz bo'lganligi bilan izohlanadi.

Xulosa. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning sifatini oshirishda bank tomonidan kreditlash uchun jalb qilingan mablag'larni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari kredit portfelining shakllanishi hamda kredit qo'yimlarining daromadliligi ular majburiyatlarining tarkibiy tuzulushiga, kredit manbalarining optimallashtiruviga uzviy bog'liq hisoblanadi. Kredit qo'yimlarining asosiy moliyalashtirish manbasi hukumat mablag'lari, O'zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot jamg'armasi (O'TTJ) resurslari va banklar tomonidan keng hajmda jalb etilgan tashqi qarz tashkil etmoqda. Mazkur manbalardan iqtisodiyotga kredit qo'yimlarini doimiy ravishda foydalanishning imkoni yo'q va bir qator salbiy oqibatlari mavjud.

Xususan, hukumat va O'TTJ mablag'lari hisobidan turli sohalarga imtiyozli kreditlarning ajratilishi markazlashgan mablag'larga bo'lgan bosimni oshirib fiskal sharoitlarning o'zgarishiga olib kelsa, tashqi qarz mablag'larining muttasil o'sib borishi banklarning tashqi xatarlarga bo'lgan ta'sirchanligini va iqtisodiyotda dollarlashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024 - yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari".

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Pul-kredit siyosatining 2022-yil va 2023-2024-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, “Statistik-byulleteni” - 2018, 2019, 2020, 2021, 2022-yillar ma’lumotlari.
3. Rasulov T.S. va Ziyodilloev X.R., “Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish yo‘nalishlari”, Monografiya, Toshkent-2024.
4. Otamurodov H.H. “Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish”, PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent-2019.
5. Mohammad J. M., “Optimal Bank Loan Portfolio in Iranian’s Banks”, Research Journal of Finance and Accounting, ISSN 2222-1697, Vol.4, No.2, 2013.
6. Ziyodilloev X.R., “Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish”, PhD. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent - 2024.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).